



O'QITUVCHILARINI METODIK TAYYORLASHDA XORIJIY TA'LIM TIZIMINING MOHIYATI

Avazov Tohir Shakarovich

Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi

Annotatsiya: Umumta'lim maktablari fanlarini o'qitishda xorijiy ta'lim muhitini yaratish, ta'lim tizimida xorijiy davlatlar o'qitish texnologiyalaridan foydalanish, o'qitish imkoniyatlaridan o'qituvchilar foydalanishlari darsda namoyish va ko'rgazmalilikni oshiradi, metodik jihatdan o'qituvchi va o'quvchining o'zaro muloqotini oshirishda pedagogga katta yordam beradi.

Kalit so'zlar: metodika, o'qitish texnologiyasi, metodik tayyorgarlik, klassik ta'lim, innovatsiya.

СУЩНОСТЬ ЗАРУБЕЖНОЙ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКЕ ПЕДАГОГОВ

Авазов Тохир Шакарович

*Джизакский областной национальный центр подготовки педагогов по новым
методикам*

Аннотация: Создание иноязычной образовательной среды при преподавании предметов в общеобразовательных школах, использование в системе образования технологий обучения зарубежных стран, использование учителями возможностей обучения повышает демонстрацию и доказуемость на уроке, методически, учителя и учащихся.

Ключевые слова: методика, технология обучения, методическая подготовка, классическое образование, инновации.

THE ESSENCE OF THE FOREIGN EDUCATION SYSTEM IN THE METHODOICAL TRAINING OF TEACHERS

Avazov Tohir Shakarovich

Jizzakh region national center for training pedagogues in new methods

Annotation: The creation of an innovative educational environment in the teaching of subjects in public schools, the use and system of educational technology training in foreign countries, the use of teaching and training opportunities increases the demonstration and proof of lessons, methodical, teaching and learning.

Key words: methodology, technology training, methodical preparation, classical training, innovation.



“Ta’lim to’g’risida”gi qonunning yangi tahririning kuchga kiritilishi uzluksiz ta’lim tizimini maktabgacha ta’lim; umumta’lim; o’rta maxsus va kasb-hunar ta’limi; oliy ta’lim (bakalavriat va magistratura); oliy ta’limdan keyingi ta’lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta’lim kabi turlarga ajratilib amalga oshirilishi, ta’lim tizimini isloh qilinishida qat’iy o’zgarishlarning yuzaga kelishi, ayrim eski tizim tarmoqlari o’rnini yangisi bilan almashtirilishi, ta’lim tizimining yangi takomil zamon talabi darajasidagi maqsadga tayangan tizimga o’tkazilishi zarur ekanligini ko’rsatdi va bu sohani yanada chuqurroq isloh qilish zarurligini belgilab berdi[1].

Zamonaviy ta’limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatining innovasion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovasion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o’tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o’rganila boshlangan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M.Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovastion yondashish, innovastion g’oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabardor bo’lish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmunini yoritilgan bo’lishi lozim[2].

Mohiyatiga ko’ra innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O’z-o’zidan tizim sifatida yangilik kiritirish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ichki mantig’ini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig’ida izchil rivojlanishi va atrof-muhitga ko’rsatadigan o’zaro ta’sirini ifodalashi lozim.

G’arb davlatlari olimlari taklif etgan ta’limining yangi konsepsiyasiga ko’ra: fanlar tayyor predmet sifatida emas, balki inson faoliyati sifatida qaralishi lozim; fanni o’rganishga majburlash emas, uni qo’llash kerak; fanni o’qitish g’oyalarni uzatish emas, qaytadan yangilikni ochish shaklida bo’lsin; borliq olam fanning ilovasi emas, balki g’oyalarning manbaiga aylansin; asosiy urg’u alohida olingan faktlarga emas, balki fan g’oyalar orasidagi bog’lanishlarga berilishi kerak; masalalar naboriga emas, kurs mazmunining boyligiga e’tibor berish lozim; fanni o’rganishda muhimi ko’nikma emas, balki uni tushunishdir deb qad etgan.

XX asrning o’rtalarida umumta’lim maktablarida ta’limning asosiy yo’nalishlari sifatida uning umumta’limiy; amaliy, politexnik; o’quvchilarni umumiy o’rta o’quv yurtlariga tayyorlashga urg’u beradigan yo’nalishlari ajralib chiqqan. Bu yo’nalishlarning har biri qolgan ikkitasiga ma’lum bir ma’noda zid bo’lib, eng ratsional o’quv dasturini qurish masalasini qiyinlashtiradi. Fanning “klassik o’zagi” va “zamonaviy” mavzularining bir kurs doirasida qo’shilishi, maktab dasturlari uchun yangi mavzularni tanlash masalalari shular jumlasidandir. An’anaviy maktab fanlari mazmunini tashkil etuvchi mavzularning juda kam qismini dasturdan chiqarish mumkin va buning hisobiga zamonaviy mavzularning ayrim tushunchalarinigina kiritish mumkin. Lekin yangi kiritilgan tushunchalar «klassik» tushunchalar bilan va aksincha bog’lanishda bo’lishiga hamma vaqt ham erishib bo’lmaydi.



Masalan, matematika fanidan 6-sinf dasturiga kiritilgan ehtimollik nazariyasining eng sodda tushunchalari na shu sinf doirasida va na yuqori sinflar matematikasi doirasida qo'llaniladi yoki rivojlantiriladi[3].

O'zbekiston Respublikasining rivojlanishida raqamli savodxonlik va madaniyatni, tanqidiy fikrlash hamda kreativ axborot-kommunikatsion kompetensiyasialarni yosh avlodlarda shakllantirish uchun sharoit yaratish.

Umumta'lim maktablari o'quvchilarida XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish orqali mustaqil hayotga tayyorlash, ijodkorlikni shakllantirish vajamo bo'lib ishlashni o'rgatish, nostandart sharoitlarda to'g'ri, iqtisodiy, ekologik trendlarga mos adekvat yechimni topish, xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etib yuqori natijalarni ko'rsata oladigan yoshlarni tarbiyalashga mo'ljallangan. O'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy va mustaqil mashg'ulotlar bajarishga hamda ijodiy fikrlashga undovchi amaliy topshiriqlar bilan ishlashni ko'zda tutadi.

Fan mazmunining yangi tahriri amalga oshirilgan qayta ishlab chiqilishi natijasida o'quvchini ta'lim jarayoni obyektidan uning subyektiga aylantirishga hizmat qiluvchi ta'limni insonparvarlashtirish g'oyalari ilgari surildi. Buning natijasida ta'limining asosiy yo'nalishlari sifatida fanni o'qitishda tabaqalashtirilganlik, umumta'lim fanlarining gumanitar yo'nalishi, ta'lim jarayonini o'quvchi shaxsiga qarab yo'naltirish asosida o'qituvchi va o'quvchining individual xususiyatlarini ochishga e'tibor kuchaygan[4].

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimining amalga oshirilishi, ayniqsa umumiy o'rta ta'lim maktablari darslarida ilg'or xorijiy tajribalarni tadbiq etilishi va bularda ta'lim tizimini kuchaytirilishi, ularda barcha fanlardan milliy o'quv dasturlarini ishlab chiqilishi bu dasturni hayotga tadbiq etish o'qituvchilar oldiga asosiy vazifa qilib qo'yildi.

Ilg'or xorijiy tajribalar muhim ahamiyatga ega va hali amalda tadbiq etilmagan sermahsul metodikalarni amalda tadbiq etilmagan tomonlari talaygina, ayniqsa uzluksiz ta'lim jarayonida uzviylashtirilgan dasturda keltirilgan tushunchalarni shakllantirishda o'quvchilarni malaka va ko'nikmalarni, mustaqil fikrlashini shakllantirish va rivojlantirish yo'llari, usullari ko'rilmagan[5].

Nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilar bilim va ko'nikmalarini, mustaqil fikrlashini shakllantirish rivojlantirish, metodik bilim asoslarining yagona ko'rinishda shakllantirish xamda uzluksiz ta'limning uzviyligi va ketma-ketligi, uning amaliy va tadbiqiy mazmunlarini kuchaytirish lozim ekanligi kelib chiqadi.

Yuqoridagi sanab o'tilgan holatlar o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil fikrlashini shakllantirish va rivojlantirish asosiy didaktik yo'nalishini tashkil etadi va uni amalga oshirishning metodik yo'llarini ko'rsatib o'tadi, ularning barchasi milliy o'quv dasturlarida mujassam etishi lozim.

Xulosa o'rnida uzluksiz ta'lim jarayonida o'quvchilar uzviylashtirilgan milliy o'quv dastur asosida unda berilgan tushunchalarni zamonaviy texnologiyalar yordamida o'rganish, buning uchun maxsus amaliy mashg'ulotlar tashkil qilish va o'tkazish hamda uning tarkibiy qismi va mazmunini aniqlash va ishlab chiqish lozim. Maxsus amaliy



mashg'ulotlar uchun misol hamda masalalar sistemasi tuzilishi va o'rganib chiqilishi yaxshi natija beradi.

Uzluksiz ta'lim tizimining xar bir bo'g'inida fanlarni o'qitish bo'yicha uslubiy taxlil o'tkazilishi, ularda ro'y bergan yoki yo'l qo'yilgan asosiy kamchiliklar va ularni oldini olish va bartaraf etishning uslubiy shartlari ko'rsatilishi lozim. Fanlarni o'qitish bo'yicha uslubiy taxlilda tavsiya etilayotgan pedagogik texnologiyalardan amalda foydalanish bo'yicha quyidagi natijadorlikni beradi: o'quvchilarni fan bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarining kengayishi va mustaxkamlanishi; o'quvchilarda mustaqil ishlarni bajarish orqali ularga mustaqil fikrlashlarini rivojlantirish; o'quvchilarning abstrak tafakkurini va tasavvurini rivojlantirish, nazariyada va amaliyotda uchraydigan hisoblash malaka va ko'nikmalarini, mustaqil fikrlashining rivojlantirishini ta'minlovchi pedagogik texnologiyalar orqali o'quvchilarning malaka va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish xamda mustaqil fikrlashini o'stirish uchun zarur bo'lgan xislatlarni barqaror toptirish.

Bularning barchasi fanlarda nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida tajriba sinovlarini o'tkazish, bu texnologiya orqali o'qitishning samarali ekanligi ijobiy natijalar beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4963-son qarori.

2. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B./ Innovation ta'lim texnologiyalari /- T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015.

3. Ishmuhamedov R.J. Innovation texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari /O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakul'teti tinglovchilari, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. - T.: TDPU, 2014.

4. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - T.: O'qituvchi, 2014.